Biroq turizm xizmatlari samaradorligini baholashda yuzaga kelgan kamchiliklar va muammolar hali ham mavjud. Masalan, kadrlar malakasining yetishmasligi, turizm xizmatlarining sifatini oshirish va hududlar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etish kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuning uchun, O'zbekistonda turizm sohasining samaradorligini baholash va uni takomillashtirish uchun zamonaviy usullar va vositalarni qo'llash zarur. Turizm sohasida zamonaviy yondashuvlarni qo'llashning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, samaradorlikni oshirish usullarini qo'llashning zarurligi maqolaning dolzarbligini belgilab beradi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotning maqsadi turizm sohasining samaradorligini baholash uchun zarur bo'lgan ilmiy yondashuvlarni taqdim etish va O'zbekistonning turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun kerakli strategik yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun turizm sohasidagi samaradorlikni baholashda foydalaniladigan zamonaviy usullarni tahlil qilish; SWOT tahlili yordamida O'zbekiston turizm sohasining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash; turizm xizmatlari samaradorligini oshirish uchun zarur strategik tavsiyalarni ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Tadqiqot natijasida pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonida, turizm infratuzilmasini yaxshilash va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston turizm sohasining hozirgi holatini tahlil qilish bilan birga, uni xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari turizm xizmatlari samaradorligini oshirish va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda, strategik qarorlar qabul qilishda foydali ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda turizm xizmatlari samaradorligini baholash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Olimlar tomonidan bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar turizm sohasining iqtisodiy o'sishdagi o'rni, xizmatlar sifatini oshirish usullari va sohaning aholi bandligiga ta'sirini o'rganishga qaratildi.

Buyuk Britaniyaning Surrey universiteti professori John Tribe turizm sohasi bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan biridir. Uning tadqiqotlari turizm ta'limi, barqaror turizm va turizm falsafasi kabi mavzularni qamrab oladi. Professor Tribe turizm xizmatlarining samaradorligini oshirishda ta'limning ahamiyati va barqarorlik tamoyillarini joriy etish bo'yicha muhim tavsiyalar bergan [1].

Avstraliyaning Kvinslend universiteti professori Sara Dolnicar turizm marketingi va iste'molchi xulq-atvori bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Uning ishlari turizm xizmatlarining sifatini oshirish va mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq o'rganish orqali samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan. Professor Dolnicar turizm sohasida ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishning ahamiyatini izohlaydi [2].

Anton V. Romanyuk va Roman R. Gareev Rossiya Federatsiyasi hududlarida turizm xizmatlari samaradorligini baholash indikatorlari tizimini takomillashtirish yo'llarini o'rganib, turistik yo'nalishlarning jozibadorligini baholash uchun asosiy omillarni aniqlashgan. Tadqiqotda hududiy turizm rivojlanishini baholash uchun indikatorlar to'plamini taklif etishgan [3].

S.To'rabekov o'zining ilmiy izlanishlarida turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish va uning aholi bandligini ta'minlashdagi rolini oshirish istiqbollarini tahlil qildi. Ushbu tadqiqotda turizm sohasining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 7,6% ni tashkil etgani va sohada 295 million kishi band bo'lgani qayd etilgan. Muallif turizm sohasini innovatsion rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratgan [4].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2024-yilning 3-choragida O'zbekistonda turizm sohasida qayd etilgan natijalarni



tahlil qildi. Ular turoperatorlar, turagentlar, mehmonxonalar va xostellar sonining oshgani, shuningdek, turizm sohasida yangi ish o'rinlari yaratilgani haqida ma'lumotlar taqdim etishdi.

Yuqoridagi tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar turizm xizmatlari samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, sohaning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari aniqlashga yordam beradi. Bu esa kelgusida turizm xizmatlarini yanada takomillashtirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun zarur chora-tadbirlarni belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizm xizmatlari samaradorligini baholash bo'yicha tadqiqot o'tkazishda zamonaviy tahliliy metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot metodlari turizm sohasining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarini o'rganishga, shuningdek, mavjud muammolarni aniqlab, ularga yechim topishga imkon yaratadi. Mazkur tadqiqot uchun quyidagi metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq:

1. SWOT tahlili. SWOT tahlili turizm xizmatlari samaradorligini baholashda asosiy ichki va tashqi omillarni aniqlashda qo'llaniladi. Ushbu metod yordamida turizm xizmatlarining jozibadorlik darajasi, xizmat sifati, infrastruktura holati, hududiy cheklovlar, xizmatlar narxi, malakali kadrlar yetishmasligi, yangi bozorlarga kirish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy inqiroz, ekologik muammolar, pandemiya kabi global tahdidlarni aniqlanishi mumkin.

SWOT tahlili turizm xizmatlarining rivojlanish strategiyasini belgilashga va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishga imkon beradi.

2. Taqqoslama tahlil. Turizm xizmatlarini taqqoslash orqali hududlar yoki mamlakatlar o'rtasidagi samaradorlik farqlarini aniqlash mumkin. Ushbu metodda hududlar yoki mamlakatlar kesimida xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari (masalan, mehmonxona to'ldirilishi, turistlar soni, daromadlar), turizm xizmatlari infratuzilmasi va marketing strategiyalari o'rtasidagi farqlar kabi ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Taqqoslama tahlil turizm xizmatlarini rivojlantirishning muvaffaqiyatli tajribalarini aniqlash va ularni boshqa hududlarda qo'llash imkonini beradi.

3. Regression tahlili. Regression tahlili turizm xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda qo'llaniladi. Ushbu metod yordamida turizm xizmatlari daromadi bilan ularning narxi, marketing kampaniyalari, infratuzilma holati va iqtisodiy o'sish kabi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish mumkin. Shuningdek, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (masalan, yalpi ichki mahsulot, bandlik darajasi) va turizm sektori samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi.

Regression tahlili yordamida turizm xizmatlariga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar aniqlanib, strategik qarorlar qabul qilishda foydalaniladi.

Ushbu metodlar birgalikda qo'llanilganda, turizm xizmatlari samaradorligini har tomonlama baholash va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish mumkin. Ayniqsa, SWOT tahlili sohaning umumiy holatini aniqlashga, taqqoslama tahlil samaradorlik darajasini ko'rsatishga, regression tahlil esa ta'sirchan omillarni aniqlashga yordam beradi. Natijada, turizm sohasida samarali boshqaruv va rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va sohaning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga qaratilgan.

2017-yilda mamlakat bo'ylab mehmonxona o'rinlari soni 37 mingta bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 124 mingtaga yetdi, ya'ni 3,4 barobarga oshdi. Shuningdek, joylashtirish vositalari soni 767 tadan 5 mingtaga ko'paydi [13]. Shu bilan birga, 2024-yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni o'tgan yilga nisbatan olganda, 5,5 mingdan 6,1 minggacha, ulardagi o'rinlar soni 144 mingdan 161 minggacha ko'paydi [9], bu esa mehmonxona va turizm infratuzilmasining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2018-yilda 106 ta oilaviy mehmon uylari faoliyat boshlagan bo'lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 3,2 mingtaga, o'rinlar soni esa 28 mingtaga yetdi. Bu qishloq joylarida 8 ming nafardan ortiq fuqaroning bandligini ta'minladi.

Yo'l bo'ylari va aholi gavjum joylarda 7,6 mingta sanitariya-gigiyena shoxobchalari holati yaxshilandi, shundan 3,9 mingtasi yangidan qurildi, 3,7 mingtasi ta'mirlandi. Mavjud avtomobillarga yoqilg'i quyish stansiyalarining 96 foizida sanitariya-gigiyena shoxobchalari tashkil etildi.

800 ta madaniy meros obyektlarida turistlar uchun shart-sharoitlar yaratilib, ular turizm yo'nalishlariga kiritildi. 2023-yilda 540 ta dam olish va ko'ngilochar maskanlar barpo etilib, 70 ta yangi turizm marshrutlari ochildi. Shu yil davomida turizm va madaniy meros obyektlariga olib boruvchi 361,5 km avtomobil yo'llari ta'mirlandi.




Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish: 2021-yilda ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida yangi avia va temir yo'l qatnovlari yo'lga qo'yildi. Masalan, Farg'ona – Urganch – Farg'ona, Termiz – Urganch – Termiz hamda Qarshi – Urganch – Qarshi aviareyslari tashkil etildi. Shuningdek, Andijon–Xiva–Andijon temir yo'l qatnovi soni oshirildi.

2022-yilda "O'zbekiston bo'yab sayohat qil!" dasturi doirasida ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu dastur fuqarolarning mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan [16]. Ushbu o'zgarishlar natijasida O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiyotdagi ulushi oshib, yangi ish o'rinlari yaratildi va mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligi kuchaydi.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq.

Turizm sektori faoliyatining asosiy xususiyati shundaki, undagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatib, qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Bu xususiyatlar turizmning o'ziga xos belgilari sifatida ajralib turadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.



1-rasm. 2023-yilda kiruvchi, chiquvchi va ichki turizmning asosiy ko'rsatkichlari.

Manba: 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (www.stat.uz)

1-rasm 2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda kiruvchi, chiquvchi va ichki turizmning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha dinamikani ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar ming kishida o'lchangan va har bir yildagi turizmning rivojlanish darajasini aks ettiradi.


O'zbekiston 2023-yilda turizm sohasini pandemiyadan keyin muvaffaqiyatli tiklagan. Kiruvchi va ichki turizmga ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa, chiquvchi turizmga iqtisodiy qiyinchiliklar ba'zi cheklavlarni keltirib chiqargan. Ushbu tendensiyalar kelgusida turizmni strategik rivojlantirishni talab qiladi.

2019-yilda 6,748.5 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, COVID-19 pandemiyasi davrida (2020-yilda) 1,504.1 ming kishigacha pasaydi. 2023-yilga kelib ko'rsatkich 6,626.3 ming kishiga yetib, deyarli pandemiyadan oldingi darajaga qaytdi. Bu o'sish xalqaro marketing va infratuzilma rivoji bilan bog'liq.

2019-yilda 8,437.8 ming kishi xorijga sayohat qilgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 2,001.5 mingga kamaydi. 2022-yilda sezilarli o'sish (5,163.2 ming) qayd etilgan, ammo 2023-yilda 4,787.4 ming kishiga biroz pasaydi. Bu iqtisodiy sharoitlarning ta'siri va xorijga chiqish xarajatlarining oshishi bilan izohlanadi.

2019-yilda 2,480.8 ming kishi ichki turizmga qatnashgan bo'lsa, pandemiya davrida bu ko'rsatkich 1,069.2 mingga tushdi. 2023-yilda ichki turizm keskin o'sib, 5,112.5 ming kishiga yetdi, bu davlat dasturlari va infratuzilmaning yaxshilanishi natijasidir.

2023-yil davomida O'zbekiston hududida 1387 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 93,41% 1i mehmonxonalar, 1,4 % i motellar va 5,2 % i boshqalarga to'g'ri keldi [8].



2-rasm. Hududlar bo'yicha mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar soni, birlik [8].

Toshkent shahar, Samarqand va Buxoro kabi asosiy turistik markazlarda obyektlar sonining kamayishi kuzatiladi. Bu sifatga bo'lgan talabni oshirish, eski obyektlarni qayta ta'mirlash va optimallashtirish bilan bog'liq.

Navoiy, Sirdaryo kabi viloyatlarda yangi obyektlarning ochilishi turizm infratuzilmasi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Toshkent shahar va Samarqand singari yirik hududlar turizmni rivojlantirishda yetakchi o'rinlarni egallaydi, ammo kichik viloyatlarda ham infratuzilmani yaxshilash ishlari olib borilmoqda.

Mazkur o'zgarishlar O'zbekistonning turizm sohasidagi strategik maqsadlariga mos keladi. Turistik obyektlarning sonini optimallashtirish va sifatni oshirish hududlarning turistik jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Hududlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun yangi loyihalarni rivojlantirish talab etiladi.

SWOT tahlili turizm xizmatlari samaradorligini baholash va rivojlantirish uchun eng muhim va samarali usullardan biridir. Ushbu tahlil turizm sohasidagi kuchli tomonlarni aniqlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, yangi imkoniyatlardan foydalanish hamda ehtimoliy tahdidlarni oldindan ko'rib chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm xizmatlarini takomillashtirishda SWOT tahlilining ahamiyati yuqori bo'lib, u sohadagi mavjud resurslarni samarali boshqarish va strategik rejalashtirish jarayonini optimallashtiradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston turizm sohasining SWOT tahlili.

SWOT	Tavsif	Ta'sir balli (1-5)
Kuchli tomonlar	Turizm infratuzilmasiga investitsiyalar hajmini oshirish	4
Kamchiliklari	Qishloq joylarda malakali ishchi kuchining yetishmasligi	3
Imkoniyatlar	Dunyo miqyosida madaniy turizmga qiziqish ortib bormoqda	5
Tahdidlar	Yirik turistik bozorlardagi iqtisodiy beqarorlik	2

Ushbu jadvalda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish uchun ichki kuchli va zaif tomonlar, shuningdek, tashqi imkoniyatlar va tahdidlar aniqlangan. Har bir omilning ta'sir darajasi balli tizimda (1-5) baholangan.

Kuchli tomonlar (4): Turizm infratuzilmasiga investitsiyalar ko'paygan. Bu sayyohlarning qiziqishini oshirib, xizmatlar sifatini yaxshilaydi.

Zaif tomonlar (3): Kadrlar malakasi yetishmovchiligi qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sifatini pasaytiradi.



Imkoniyatlar (5): Dunyo bo'ylab madaniy turizmga bo'lgan qiziqish, O'zbekistonning boy madaniy merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilish imkonini beradi.

Tahdidlar (2): Asosiy turistlar oqimi keladigan bozorlar iqtisodiy inqirozga yuz tutishi turizm daromadlarini kamaytiradi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Turkiyaga kiruvchi turistlar sonining 2021-2023-yillardagi dinamikasini taqqoslash orqali ushbu mamlakatlardagi turizm sohasining rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Quyida keltirilgan jadval turizm xizmatlari samaradorligini baholashda muhim manba bo'lib, har bir mamlakatning turizm sektoridagi o'zgarishlarni ko'rsatadi va kelgusida samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Mamlakatga tashrif buyurgan turistlarning qiyosiy tavsifi (mln. nafar).

Yillar	O'zbekistonga kelgan turistlar	Qozog'istonga kelgan turistlar	Turkiyaga kelgan turistlar
2019	6,7	8,5	45,0
2020	1,5	2,0	16,0
2021	1,8	1,3	29,5
2022	5,2	7,7	34,5
2023	6,7	9,2	49,2

Manba: www.stat.uz, <https://www.tuik.gov.tr>, www.kazstat.kz ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar soni ortgani kuzatilmoqda. 2019-yilda O'zbekistonga 6,7 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi va bu mamlakat uchun rekord ko'rsatkich bo'ldi [17]. Shu bilan birga, COVID-19 pandemiyasi 2020-2021-yillarda turistlar oqimining sezilarli darajada kamayishiga olib kelgan bo'lsa-da, 2022-yildan boshlab mamlakat turizm sektori qaytadan tiklanishni va sayyohlar soni o'sishni boshladi. 2022-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 5,3 va 2023-yilda 6,7 millionni tashkil etdi [17]. Ushbu o'sish xalqaro marketing kompaniyalari va madaniy meros obyektlarining faol targ'iboti bilan bog'liq.


Qozog'istonda ham turistlar oqimi o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. 2021-yilda 1,3 million turist tashrif buyurgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 7,7 millionga oshgan. 2023-yilda esa 9,2 million turist qayd etilgan. Bu mamlakatning tabiiy landshaftlari va tranzit turizm imkoniyatlariga bo'lgan qiziqishning oshishi natijasidir [14].

Statistik raqamlar Turkiya dunyodagi yetakchi sayyohlik markazlaridan biri ekanligini asoslaydi. Masalan, 2019-yilda mamlakatga 45 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurib, iqtisodiyotga qariyb 34,5 milliard dollar hissa qo'shdi [15]. Bu ko'rsatkich 2020-yilda pandemiya tufayli vujudga kelgan cheklovlar oqibatida turistlar soni 16 millionni qayd etdi, turizmdan tushgan tushum esa 12,0 milliard AQSH dollarini tashkil qildi [15]. Cheklovlar kamayib borishi natijasida 2021-yilda sayyohlar soni 29,5 millionga, turizmdan tushgan daromad esa 20,3 milliard AQSH dollarga yetdi [15]. 2022-yilda Turkiyada turizm sektori tiklanishda davom etdi va qariyb 34,5 million xorijiy sayyohlarni qabul qildi [12]. 2023-yilda esa 49,2 million sayyohlar Turkiyaga tashrif buyurdi, mamlakat iqtisodiyotiga turizmning qo'shgan hissasi 54,3 milliard AQSH dollarini tashkil qildi, bu raqamlar sayyohlar oqimining pandemiyagacha bo'lgan davrga nisbatan 9,3% o'sishi, ya'ni Turkiya pandemiyagacha bo'lgan holatni tiklash bilan birga qo'shimcha o'sish sur'atiga ham erishganligini ko'rsatadi [12]. Bu mamlakatning turizm infratuzilmasi va brend sifatidagi kuchli pozitsiyasi bilan izohlanadi.

O'zbekistonning turistlar oqimidagi o'sish sur'ati mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan tezroq bo'lib, mamlakatning turizm strategiyasi to'g'ri yo'nalishda ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Turkiya va Qozog'istonning turizm infratuzilmasi va marketing yondashuvlari bilan taqqoslash orqali yangi imkoniyatlar aniqlanishi mumkin.

Regression tahlili turizm sohasidagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda muhim usul hisoblanadi. Regression tahlili yordamida marketingga qilingan investitsiyalarning turizm sektoriga ta'siri o'chanadi, bu esa kelajakda samarador strategiyalar ishlab chiqishga asos yaratadi.

Quyidagi grafikda ko'rsatilgan raqamlar marketing xarajatlarning o'sishi bilan birga turizm daromadlarining sezilarli oshishini ko'rsatadi, bu esa marketingning turizm rivojlanishidagi o'ta muhim rolini tasdiqlaydi. Ushbu ma'lumotlar turizmni rivojlantirish bo'yicha investitsion qarorlar qabul qilishda muhim dalil sifatida xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Marketing byudjeti va turizm daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik (2021-2023-yillar, mln. AQSh dollarida).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Ushbu grafikda O'zbekiston turizm sektorida marketingga sarflangan mablag'lar va undan olingan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan. Regression tahlili orqali ushbu bog'liqlikni aniqlash mumkin bo'ladi. Regression formulasi:

$$Y = a + bX$$

Bu yerda:

Y: Turizm daromadlari

X: Marketing byudjeti

a: Asosiy daromad

b: Bog'liqlik koeffitsiyenti

Grafikdagi ma'lumotlarga ko'ra:

2021-yilda $X=2$, $Y=10$

2022-yilda $X=3$, $Y=16$

2023-yilda $X=4$, $Y=23$

Regression tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$Y=1+5,5X$$

Regression tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, marketing byudjetidagi har bir million dollarlik o'sish turizm daromadlarini o'rtacha 5,5 million dollarga oshiradi. Bu marketing kampaniyalarining yuqori samaradorligini ko'rsatadi va kelgusida byudjetni oshirishni tavsiya qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm xizmatlari samaradorligini baholash bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston turizm sohasi so'nggi yillarda sezilarli o'sishni boshdan kechirmoqda. 2021-yildan boshlab kiruvchi va ichki turizmda ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, pandemiyadan keyingi tiklanish davrida xalqaro marketing kampaniyalari va infratuzilmaning rivoji muhim rol o'ynadi. Qozog'iston va Turkiya bilan taqqoslaganda, O'zbekiston turistlar oqimini oshirishda yuqori sur'atlarni namoyon etdi, bu esa mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Biroq ayrim hududlarda mehmonxona va turistik obyektlar sonining kamayishi, shuningdek, chiquvchi turizm iqtisodiy omillar ta'siri bilan bog'liq qiyinchiliklar mavjud. Shuning uchun turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Fikrimizcha, turizm xizmatlari samaradorligini baholash usullari va vositalari tahlilidan samarali foydalanish orqali sohani yanada rivojlantirishda quyidagi takliflarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega:

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida:

- hududlarda yangi mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari va xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish;
- mavjud obyektlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va ularning sifatini oshirish.



Marketing strategiyalarini kuchaytirish borasida:

- xalqaro va mintaqaviy bozorlar uchun maxsus reklama kampaniyalarini tashkil etish;
- ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda O'zbekistonning turizm salohiyatini faol targ'ib qilish.

Ichki turizmni qo'llab-quvvatlash borasida:

- arzon transport imkoniyatlari va subsidiya dasturlarini kengaytirish;
- ichki turistlar uchun yangi sayyohlik marshrutlari va paketlarini taklif etish.

Kadrlar salohiyatini oshirish borasida:

- qishloq joylarda turizm xizmatlarini ko'rsatish uchun malakali ishchi kuchini tayyorlash;
- turizm sohasida xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni jalb qilish va mahalliy kadrlarni tayyorlash dasturlarini yo'lga qo'yish.

Barqaror turizmni rivojlantirish borasida:

- ekologik toza turizmni targ'ib qilish va madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash;
- barqaror rivojlanishga qaratilgan turizm loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish.

Hududiy farqlarni kamaytirish borasida:

- Toshkent, Samarqand va Buxoro singari yirik turistik markazlar bilan bir qatorda, boshqa hududlarda ham turizm infratuzilmasini rivojlantirish;
- kam rivojlangan hududlarda turizmni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

Umuman olganda, O'zbekiston turizm sohasida yuqori salohiyatga ega bo'lib, bu sektor mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan takliflarni amalga oshirish orqali mamlakatning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkoniyati mavjud. Turizmni barqaror rivojlantirish esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. John Tribe. The truth about tourism. Annals of Tourism Research. Jan 1, 2006. https://www.academia.edu/1098708/The_truth_about_tourism
2. Dolnicar, S. & Ring, A. (2014) Tourism Marketing Research – Past, Present and Future. Annals of Tourism Research, 47: 31-47.
3. Romanyuk, A., & Gareev, R. (2020). The System of Indicators for Assessing the Effectiveness of the Regions in the Field of Tourist Services in Russia: Key Problems and Solutions. Journal Of Environmental Management And Tourism, 11(6), 1347 — 1367. doi:10.14505/jemt.v11.6(46).05
4. To'rabekov, S. S. (2024). Turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish va uning aholi bandligini ta'minlashdagi rolini oshirish istiqbollari (Dissertatsiya avtoreferati). Samarqand. URL: <https://library.ziynet.uz/book/131353>
5. United Nations World Tourism Organization (UN Tourism). (2025). World Tourism Barometer and Statistical Annex, January 2025 Edition. UNWTO. Retrieved from https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data?utm_source
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2024-yil yanvar-dekabr. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 537 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2021). O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2020-yil yanvar-dekabr. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 483 bet.
8. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. URL: <https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/turizmpresreliz2023uz.pdf>
9. 2025-yilda O'zbekistonda mehmonxona va joylashtirish joylari soni qariyb yetti mingtaga yetkaziladi. // URL: <https://vzglyad.uz/uz/post/2025/01/31/turizm>
10. <https://www.unwto.org/news/international-tourism-to-reach-pre-pandemic-levels-in-2024>
11. <https://www.ktb.gov.tr/EN-249283/tourism-statistics.html>
12. <https://www.statista.com/topics/9676/travel-and-tourism-in-turkey>
13. <https://xabar.uz/uz/mahalliy/ozbekistonda-turizm-amalga-oshirilayotgan>
14. https://forbes.kz/articles/v_2023_godu_kazahstan_posetilo_svyishe_9_millionov_inostrantsev
15. <https://www.ktb.gov.tr/EN-249283/tourism-statistics.html>
16. <https://president.uz/oz/lists/view/5170>
17. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/metadata-2>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>